

631.111

#43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

"O'ZDAVYERLOYIHA" DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

AKRAMOV ISLAM LUQMANOVICH

**QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI MONITORINGINI YURITISH
USULLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH (TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)**

06.01.10-"Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi"

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2025

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Akramov Islam Luqmanovich

Qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini yuritish usullarini raqamli
texnologiyalar asosida takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida) 3

Акрамов Ислам Лукманович

Совершенствование методов мониторинга сельскохозяйственных земель
на основе цифровых технологий (на примере Ташкентской области) 21

Akramov Islam Luqmanovich

Improving agricultural land monitoring methods based on digital technologies
(on the example of Tashkent region) 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ 45

List of published works

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
“O‘ZDAVYERLOYIHA” DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI**


AKRAMOV ISLAM LUQMANOVICH

**QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARI MONITORINGINI YURITISH
USULLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH(TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)**

06.01.10-“Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi”

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

6674/1



TOSHKENT-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Qx466 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "O'zdayerloyiha" davlat-ilmiy loyihalash institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdau.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Narbayev Sharofatdin Kengeshovich
iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Babajanov Allabergan Ruzimovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent

Hamidov Fayzullo Ramazonovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan falsafa doktori (PhD) ilmiy darjasini beruvchi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 19-noyabr soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (555125-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi. 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 3-noyabrda 21-raqamli reyestr bayonnomasi).



U. Norqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash raisi, d.s.s.d., professor.

A.A. Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., dotsent.

S. Avezbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash raisi o'rinbosari, i.f.d., professor.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo'jaligi yerlari monitoringi jamiyatning iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Asrimiz boshidan yer sharida mavjud 13 mlrd.ga yer maydonidan quruqlikning taxminan 10% ini, ya'ni 1,5 mlrd gektari haydali, dehqonchilik qilinib kelmoqda. Har yili 6-7 mln gektar unumdor yerlar qishloq xo'jaligi tasarrufidan chiqib ketmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida 6,8 mln. ga atrofida sug'oriladigan yerlar mavjud 1. Yer unumdorligini saqlash, undan oqilona foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish hozirgi kunda global muammolardan biri hisoblanadi. Shu boisdan qishloq xo'jaligi yerlarining monitoringi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u yerlarning holatini doimiy ravishda kuzatish, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Dunyo miqyosida qishloq xo'jaligi yerlari monitoringi davlatlar, xalqaro tashkilotlar va ilmiy markazlar tomonidan olib borilmoqda. Xususan, BM'Tning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), NASA, Yevropa Kosmik Agentligi (ESA) kabi tashkilotlar global monitoring tizimlarini olib borishda yuqori samara beradigan texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va yanada takomillashtirish masalasidagi ilmiy izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

Jahonda sun'iy yo'ldosh tasvirlari va GAT texnologiyalaridan keng foydalanilish orqali qishloq xo'jaligi yerlarining degradatsiyasi, hosildorlik darajasi va ekologik muammolar real vaqt rejimida kuzatish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligi yer monitoringi yerlarni unumdorligi, eroziya jarayonlari, sho'rlanish, suv resurslarining taqsimlanishi va boshqa ekologik omillarni o'rganishga qaratilgan. Ushbu monitoring zamonaviy texnologiyalar, jumladan, masofaviy zondlash, sun'iy yo'ldosh tasvirlari, geografik axborot tizimlari (GAT) va tahlillar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqotlar orqali yerlarning ekologik holati, ulardan foydalanish dinamikasi va hosildorligi to'g'risida aniq ma'lumotlar olinadi. Shuningdek, Xitoy va Hindiston kabi qishloq xo'jaligi sohasida yetakchi davlatlar ham zamonaviy monitoring tizimlarini rivojlantirishga katta mablag' ajratmoqda. Ular dronlar, masofaviy zondlash va sun'iy intellekt yordamida qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish qilish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi yerlari monitoringi muhim masalalardan biri hisoblanadi, yer resurslaridan samarali foydalanish, ularning holatini nazorat qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan, agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini

¹ <https://urmon.gov.uz/press-center/news/yer-sharida-2-milliard-gektarga-yaqin-maydonlar-turli-darajada-degradatsiyaga-uchkor-bo'lgan?lang=ru>

1,5 baravar oshirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, raqamli monitoring tizimlarini yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali yer resurslaridan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-martdagi "Aholi tomorqalari va dehqon xo'jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 191-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-son Farmoni bilan belgilangan "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish" nomli konsepsiyasi va 2019-yil 23-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5006-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III.«Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» va V.«Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda yer monitoringi dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi, ekologiya, urbanizatsiya, iqlim o'zgarishi va tabiatni muhofaza qilish sohalarida keng qo'llanilmoqda. Ilg'or davlatlar va xalqaro tashkilotlar sun'iy yo'ldosh texnologiyalari, sun'iy intellekt va raqamli ma'lumotlar bazalari yordamida yer resurslarini kuzatib borish va samarali boshqarish bo'yicha xorijda Yu.V.Gorbunova, A.Ya.Safonov, A.A.Varlamov, S.N.Volkov, V.V.Vershinin, Ye.L.Uvarova, V.V.Terleev, S.V.Odinov va boshqalar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Respublikamizda esa mazkur yo'nalishda S.A.Avezbayev, A.X.Abdullayev, M.I.Ruzmetov, R.A.Turayev, A.R.Babajanov, Q.R.Raxmonov, Sh.K.Narbayev, K.N.Xujakeldiyev, S.N.Abduraxmonov, A.N.Inamov, B.N.Inamov, K.M.Xojiyev, O.O'Davronov, J.Z.Usmonov, R.N.Sharopov, B.Yu.Maxsudov va boshqa olimlar tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan.

Shunga qaramasdan, respublikamizda qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini o'tkazishda raqamli texnologiyalarni qo'llash usullarini takomillashtirishni ilmiy asoslash bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti «O'zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini

o'tkazishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan (2019-2024-yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini yuritish usullarini raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida takomillashtirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli texnologiyalar asosida yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazish va yer munosabatlarini tartibga solishning yangicha tizimini ishlab chiqish;

statistik ma'lumotlar, kosmik tasvirlarni raqamli qayta ishlash, geoaxborot tahlili va xaritalash usullari asosida qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish konsepsiyasini takomillashtirish;

g'o'za, donli, moyli, poliz, kartoshka va sabzavot ekinlarini joylashtirishga va ularning monitoringini yuritishga qaratilgan elektron dastur ishlab chiqish;

dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yer turlari va ekin maydonlaridan foydalanish monitoringini yuritishning tashkiliy va texnik mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi yerlari va ulardan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar xizmat qilgan.

Tadqiqotning predmetini qishloq xo'jaligi yer maydonlarida monitoring o'tkazishda qo'llaniladigan raqamli texnika va texnologiyalar hamda usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida dala tadqiqotlari, tahlil, qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy tahlil, loyiha-qidiruv ishlari, kartografik, monografik tadqiqot, matematik modellashtrish, masofadan zondlash, statistik guruhlash, aerokosmik usullar va GAT texnologiyalari dasturlaridan, "O'zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma", "Tabiiy yaylovlar monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish bo'yicha qo'llanma" kabi uslubiy qo'llanmalardan va "Degradatsiyaga uchragan tog' oldi va cho'l yaylov yerlarini tiklash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish" ilmiy-uslubiy tavsiyanomadan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

raqamli texnologiyalar asosida 119,1 ming gektar yer maydonlarini kompleks yo'qlamadan o'tkazish va ularning holatini tahlil qilish asosida yer munosabatlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

statistik ma'lumotlar > kosmik tasvirlarni raqamli qayta ishlash > geoaxborot tahlil > xaritalash usullari asosida qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligi yerlarida qishloq xo'jaligi ekinlari (g'o'za, donli, moyli, poliz, kartoshka va sabzavot ekinlari)ni joylashtirishga va ularning monitoringini yuritishga qaratilgan "R-GIS" nomli yer axborot tizimi ishlab chiqilgan;

dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yer turlari hamda ekin maydonlaridan foydalanish monitoringini yuritishning tashkiliy va texnik mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish bo'yicha amalga oshirilgan dala tadqiqot ishlari an'anaviy usulda 70-85% ni tashkil etgan bo'lsa, uchuvchisiz uchish qurilmalari asosida monitoring olib borilganda esa, bu ko'rsatkich 90-95% ni tashkil etganligi aniqlangan;

g'o'za, donli, moyli, poliz, kartoshka va sabzavot ekinlari holati bo'yicha kompleks ma'lumot beruvchi yangi ishlab chiqilgan "R-GIS" nomli yer axborot tizimi "O'zdavyerloyiha" DILI geoportaliga integratsiya qilingan;

ekinlar yer maydoni xronologiyasidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish xaritasining *GeoJSON formatda foydalanish sxemasi ishlab chiqilgan.

dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yer turlari va ekin maydonlaridan foydalanish monitoringini yuritishning takomillashtirilgan tashkiliy va texnik mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqotda dala usullaridan foydalangan holda korrelatsion-regressiya tahlildan o'tkazilganligi hamda olingan nazariy natijalarni amaliy natijalarda tasdiqlanganligi, izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, uning viloyat boshqarmalari va "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti materiallaridan foydalanilganligi, mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, to'plangan ma'lumotlar yetakchi mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi va joriy etilganligi natijalarning ishonchiligidini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli texnologiyalar asosida yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazish va ularni tahlil qilish usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilganligi, kosmik tasvirlarni tahlil qilish asosida qishloq xo'jaligi yerlarining holatini baholash, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yer resurslaridan foydalanish tizimi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar yer maydonlarini monitoring qilish, ekinlarni joylashtirish va ulardan samarali foydalanish, shuningdek, yer munosabatlarini tartibga solishda muhim vosita bo'ladi, ilmiy-uslubiy tavsiyalar esa qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini yuritish usullarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

raqamli texnologiyalar asosida yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazish va yer munosabatlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan va Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 2-iyundagi 05/06-04-304-son ma'lumotnomasi). Natijada qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali va barqaror foydalanish masalasi zamonaviy ekologik,

iqtisodiy va ijtimoiy talablar bilan bevosita bog'liqligi va yer resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar muhim o'rin tutishi aniqlanib, nazariy asoslari yoritilgan;

qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilishning takomillashtirilgan konsepsiyasi asosida kosmik tasvirlarni raqamli qayta ishlash, geoaxborot tahlili va xaritalash usullari takomillashtirilgan va Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 2-iyundagi 05/06-04-304-son ma'lumotnomasi). Natijada sun'iy yo'ldosh tasvirlari, dronlar, masofaviy zondlash va raqamli monitoring tizimlari orqali yer holatini kuzatish hamda agrotexnik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish mumkinligi isbotlangan;

qishloq xo'jaligi yerlarida ekinlar (paxta, g'alla, kartoshka, moyli ekin, poliz ekin va sabzavot ekinlari)ni joylashtirishga va monitoringini yuritishga qaratilgan elektron dastur ishlab chiqilgan va Toshkent viloyati Fermerlar kengashida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 2-iyundagi 05/06-04-304-son ma'lumotnomasi). Natijada bu qishloq xo'jaligi yerlarida ekinlar (paxta, g'alla, kartoshka, moyli ekin, poliz ekin va sabzavot ekinlari)ni joylashtirish va monitoringini yuritish ancha osonlashdi, shuningdek bu qishloq xo'jaligi yerlarining hozirgi holati, ulardan foydalanish intensivligi va hududiy taqsimoti tahlil qilinib, monitoring jarayonida aniqlangan o'zgarishlar va mavjud muammolarni tahlil qilish orqali resurslardan yanada oqilona foydalanish imkonini bergan.

dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yer turlari va ekin maydonlaridan foydalanish monitoringini yuritishning tashkiliy va texnik mexanizmlari ishlab chiqilgan va Toshkent viloyati Fermerlar kengashida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 2-iyundagi 05/06-04-304-son ma'lumotnomasi). Natijada bu qishloq xo'jaligi yerlarining hozirgi holati, ulardan foydalanish intensivligi va hududiy taqsimoti tahlil qilinib, monitoring jarayonida aniqlangan o'zgarishlar va mavjud muammolarni tahlil qilish orqali resurslardan yanada oqilona foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha hisobotlar har yili «O'zdavyerloyiha» DILning Ilmiy-texnik kengashida ko'rib chiqilgan va ijobiy baholangan, shuningdek 4 marta xalqaro va 2 marta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shulardan 1 ta ilmiy-uslubiy tavsiyanoma, 2 ta dasturiy ta'minotga guvohnoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning asosiy hajmi 119 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq etish ro'yxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Qishloq xo'jaligi yerlarining hozirgi holati va monitoring qilishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi yer fondi tahlili, Qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona va samarali foydalanish zamonaviy agrar siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu bobda qishloq xo'jaligi yerlarining monitoringini tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari keng yoritilgan bo'lib, monitoring tizimini shakllantirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Yerlarda yuzaga kelgan va yer kadastr materiallarida o'z vaqtida qayd etilmagan yerlarning miqdoriy ko'rsatkichlarining o'zgarishi, davlat buyurtmalarini belgilash, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo'yicha, urug'lik, mineral o'g'itlarga, yoqilg'i-moylash materiallari, sug'orish suvi, mehnat resurslari va boshqalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash ishonchligining buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, bu buzilishlar, ekinlar va resurs xarajatlari hisobga olinmagan holda, yerdan foydalanuvchilarning daromadlari, yer va sug'orish suvlari uchun to'lovlarning buzilishi va hokazolarni keltirib chiqarishi mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yerlarning yuqoridagi va boshqa miqdoriy xarakteristikalaridagi o'zgarishlar, ushbu toifadagi yerlarni monitoring qilishning muhim vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan 26,132 mln gektardan ortiq, shu jumladan 4,2 mln gektar sug'oriladigan yerlardan foydalanib, aholining ehtiyojlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilmogda (1-jadval). Sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmogda. Natijada 2008-2017-yillar mobaynida 1,7 mln gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti va 2,5 mln gektar maydonlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga erishildi.


Yer monitoringi yer fondidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish maqsadida uning holatini kuzatib borish tizimidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydoni		Shu jumladan sug'oriladigan yerlar	
		Jami	Foiz hisobida	Jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	26 132,2	58,21	4 226,2	9,41
2	Aholi punktlari yerlari	226,7	0,51	50,9	0,11
3	Sanoat transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	786,9	1,75	12,6	0,03
4	Tabiatni muxofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	3223,3	7,18	0,9	0,002
5	Tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar	15,0	0,03		
6	O'rmon fondi yerlari	12 092,5	26,94	45,4	0,10
7	Suv fondi yerlari	827,3	1,84	4,6	0,01
8	Zaxira yerlar	1 588,5	3,54	1,9	0,004
	Jami yerlar:	44 892,4	100,0	4 342,5	9,67

Izoh: * – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ma'lumotlari, 2024 yil.

Yer monitoringi yagona klassifikatorlar, kodlar, metrik birlik tizimi, ma'lumotlarning standart formatlari va me'yoriy-texnik baza, koordinatlar va balandliklar davlat tizimiga asoslangan turli xil ma'lumotlarning bir-biriga mosligi prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

**1-rasm. Qishloq xo'jaligi yerlari monitoringi**

(qora rangdagi amaldagi monitoring, qizil rangda taklif etilayotgan monitoring)

Innovatsion texnologiyalarni yer monitoringida qo'llashning natijalariga quyidagilar kiradi: mehnat unumdorligi, vaqt tejalishi, yuqori darajadagi sifat, ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash, yer maydonlarini umumiy va uzluksiz nazorati, yerlarni muntazam xatlovdan o'tkazish, yuqori aniqlik, ishchi kuchi kamayishi.

Mazkur tadqiqotlar asosan sug'oriladigan yerlar monitoringini yuritishda tuproqning tarkibiy jihatdan monitoringiga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq, aynan qishloq xo'jaligi yerlarining monitoringini miqdoriy jihatdan yuritish va uni takomillashtirish masalalari bugungi kunga qadar o'z ilmiy yechimini topmagan.


Demak, qishloq xo'jaligi yer maydonlarining monitoringini yuritish bo'yicha aniq uslubiy tartibni takomillashtirish zarur. Har bir qishloq xo'jaligi yer turi bo'yicha monitoringni tashkil etish, faqatgina yerlarning aniq hisobini yuritish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashga imkon beradi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish va ularni o'z qishloq xo'jaligi tizimimizda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Bob yakunida xorijiy mamlakatlar, jumladan, Koreya, Yaponiya, AQSH, Gollandiya, Xitoy va boshqa davlatlarning ilg'or monitoring tajribalari tahlil etilgan. Ularda qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalar - dronlar, sun'iy yo'ldosh tasvirlari, AI (sun'iy intellekt) asosida tahlil qilish usullari keltirilib, ularni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **"Toshkent viloyatida qishloq xo'jalik yerlari monitoringini o'tkazishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati"** deb nomlangan ikkinchi Ushbu bobda Toshkent viloyatining qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holati va dinamikasi, ularni monitoring qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali erishilgan ilmiy-amaliy natijalar hamda yer monitoringi yer tuzish tizimining axborot asosi sifatida qo'llanilishi haqida yoritilgan. Hududiy tahlillar orqali yerlarning tabiiy-agroekologik holati, degradatsiya darajasi, meliorativ ko'rsatkichlari aniqlangan va ularni kuzatib borish mexanizmlari takomillashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat Kadastrlari palatasi tomonidan taqdim etilgan milliy yer hisoboti ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil 1-yanvar holatiga Respublikaning ma'muriy-hududiy chegarasidagi jami yerlar 44 mln 892,4 ming gektarni tashkil etadi. Bulardan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 25 mln 772 ming gektarni tashkil etib, shundan sug'oriladigan ekin yerlar 3 mln 200 ming gektardan ortiq. Tadqiqot obyekti hisoblangan Toshkent viloyatida ushbu ko'rsatkichlar tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarga nazar solsak, 2024-yilning yanvar holatiga ko'ra viloyatning umumiy maydoni 1515,0 ming gektarni tashkil etgan, shundan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 580,0 ming gektarni tashkil etib, uning 333,5 ming.ga maydoni sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari, shuningdek, 54,9 ming gektarni ko'p yillik daraxtzorlar (36,0 gektar bog'zorlar, 14,2 gektar tokzorlar, 3,9 gektari tutzorlar), 0,8 ming.ga bo'z yerlar, shu jumladan, 400,0 gektar sug'oriladigan yerlar, 400,0 gektari lalmi yerlar, pichanzor va yaylovlar maydoni 445,7 ming.gektardan iborat ekanligi aniqlangan.

Hududda 6 738 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, ularning umumiy yer maydonlari 337,2 ming gektarni tashkil etadi, shundan 312,1 ming gektar maydon qishloq xo'jalik yerlariga to'g'ri keladi. Toshkent viloyati hududining qishloq xo'jaligi yer maydonlarining 2013-2023 yillardagi o'zgarishlar dinamikasi keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Toshkent viloyati hududining qishloq xo'jaligi yer maydonlarining o'zgarishlar dinamikasi

Tadqiqot jarayonida Toshkent viloyatining Toshkent tumani yer resurslarini monitoring qilish natijalari taqdim etilgan. Tekshiruv obyekti sifatida barcha toifadagi yer uchastkalari tanlangan. Qishloq xo'jaligi yerlari ustuvor ravishda ko'rib chiqildi. Ayniqsa, yerdan foydalanish jarayonlari faol bo'lgan hududlarga alohida e'tibor qaratildi. 2011-2012 va 2019-2020 yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, ushbu hududlardagi yerlar uzoq vaqt davomida foydalanilmagan yoki noto'g'ri foydalanilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib monitoringni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilanadi. Tadqiqotimizda biz yer uchastkalarini kelajakda foydalanish uchun mosligini baholash imkonini beruvchi metodikani qo'lladik, bu esa mulk shakllaridan qat'i nazar amalga oshiriladi. Buning uchun biz quyidagi subtizimlarni o'z ichiga olgan ekspert tizimini ishlab chiqdik:

1) Masofaviy zondlash ma'lumotlarini tahlil qilish bo'yicha laboratoriya ishlari;

2) Hududdagi yer qonunchiligini buzish alomatlarini mavjud obyektlarni o'rganish, materiallar to'plash va fotografiya qilish bo'yicha ekspeditsiya ishlari;

3) dala tekshiruvlar, statistik hisobotlar, yer kadastrining rasmiy ma'lumotlari, shu jumladan internet tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish uchun analitik qayta ishlash.

So'nggi paytlarda tumanda qishloq xo'jaligi yerlari daraxtlar va butalar bilan tezda to'ldirilmoqda. Bu bir qator muammolarga olib keladi. Ulardan biri qishloq xo'jaligi maydonlarining miqdoriy qisqarishidir.

Aerofotosuratlar va kosmik suratga olish orqali olingan tasvirlarni o'rganish 10 yil ichida daraxtlar va butazorlar bilan qoplanadigan maydonlarining 15% dan 70% gacha oshganini ko'rsatdi. Oldingi yer xususiyatlarini tiklash choralarining yo'qligi sababli, zaif o'sish darajasi kuchli o'sishga aylangan. Shundan so'ng, yer uchastkasi qishloq xo'jaligi faoliyati uchun yanada foydalanishga yaroqsiz deb topiladi. 2015 va 2025-yillarga oid masofaviy zondlash ma'lumotlari ekspeditsiya ishlari davomida tasdiqlangan (3-rasm).



A



B

3-rasm. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning daraxtlar va butazorlar bilan qoplanishi.

a) aerofotosurat 2015-yil, b) kosmik surat 2025-yil

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish monitoringini takomillashtirishning uslubiy-texnik asoslarini ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi aniq choralarni amaliy bajarish tavsiya etiladi:

birinchidan, qishloq xo'jaligi yerlarining hisobi va monitoringini yuritishda zamonaviy geografik axborot tizimlari va uchuvchisiz uchish qurilmalari - dronlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish zarur;

ikkinchidan, qishloq xo'jaligida uchuvchisiz uchish qurilmalri dronlardan foydalanilib xo'jaliklarning monitoringi olib borilishi yerlarning chegaralarini, hozirgi kundagi ahvoli, yerdan boshqa maqsadlarda foydalanilayotgan xo'jaliklarini aniqlash, qishloq xo'jaligida ekinlarining qanday ahvoldaligini kuzatishda o'zining yuqori aniqligini ko'rsatdi;

uchinchidan, olib borilgan maqsadli ilmiy izlanishlar natijasida ma'lum qishloq xo'jaligi yerlarining elektron raqamli kartalarini yaratish masalalarini amaliy hal etishda eng qulay va tezkor usul - bu ArcGIS dasturidir;

to'rtinchidan, zamonaviy GATlari asosida qishloq xo'jaligi yerlarining raqamli kartalarini yaratish jarayonidagi asosiy omillar o'rganildi va besh bosqichdan iborat maxsus texnologik sxema ishlab chiqildi va ishlab chiqilgan maxsus besh bosqichli texnologik sxema asosida mavzu obyekti bo'yicha Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi Baxmal massivi va Mirzo Ulug'bek massivi qishloq xo'jaligi yerlarining elektron kartasi ArsGIS dasturi asosida yaratildi.

beshinchidan, qishloq xo'jaligi yerlarining raqamli kartalarini yaratish va yuritish jarayonida "SASPlanet" dasturi ulkan imkoniyatlarga ega.

Dissertatsiyaning "Qishloq xo'jalik yerlari monitoringini o'tkazishni takomillashtirish" deb nomlangan uchinchi Ushbu bobda qishloq xo'jaligi yerlarining monitoringini tashkil etish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish, Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini tashkil etishda GAT texnologiyalardan foydalanish hamda qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini yuritishda 3D modeldan foydalanishga doir masalalar keng

yoritilgan. Amaldagi monitoring tizimining kamchiliklari, ularning sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari asoslab berilgan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, masofadan zondlash va geoinformatsion tizimlardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini tashkil etish uslubini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot davomida, biz quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

1) Monitoringning mavjud usullarini tahlil qilish va ularning kamchiliklarini aniqlash: Bugungi kunda qo'llanilayotgan monitoring usullari, ularning aniqlik darajasi, vaqtinchalik ko'rsatkichlari hamda qamrovi o'rganildi. Aniqlandi-ki, ko'pgina usullar resurslar talabchanligi va ma'lumotlarni qayta ishlashdagi qiyinchiliklar tufayli samaradorlikni ta'minlamaydi.

2) Yuqori aniqlikdagi ma'lumotlarni yig'ish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganish: Masofadan zondlash (Remote Sensing) usullari, xususan, sun'iy yo'ldosh tasvirlari va uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) yordamida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ekinlar holatini baholash imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

3) Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqish: Yig'ilgan ma'lumotlarni filtratsiya qilish, kalibrlash va tasniflash algoritmlari ishlab chiqildi. Bu algoritmlar ekinlarning turli xil ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi (masalan, vegetatsiya indeksi, biomass, suv stressi).

4) Monitoring natijalarini vizuallashtirish va taqdim etish usullarini yaratish: Qishloq xo'jaligi mutaxassislari va fermerlar uchun tushunarli bo'lgan grafik va xaritalar yaratildi. Ushbu vizuallar ekinlar holati haqida tezkor va aniq ma'lumot beradi.

Natijada, monitoringni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish uchun takliflar tayyorlandi.

Biz tomondan tadqiqotlar davomida yaratilgan «R-GIS» (Real Geoinformation system) yer axborot tizimi qishloq xo'jaligi yerlarining monitoringini amalga oshirish uchun mo'ljallangandir. Ushbu dasturlashgan tizimning joriy etilishi orqali hududlarning davriy, joriy va tezkor monitoringini qisqa vaqt oralig'ida yuritish imkoniyati yaratildi.

Yaratilgan tizim quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Yer maydonlarini aniq va tezkor baholash: Tizim yer maydonlarining holatini, unumdorligini va ekin turlarini aniq baholash imkonini beradi;

Ma'lumotlarning markazlashgan bazasi: Barcha ma'lumotlar markazlashgan bazada saqlanadi, bu esa ma'lumotlarni boshqarish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi;

Xavflarni erta aniqlash: Tizim yordamida qishloq xo'jaligi yerlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni (boshqa maqsadda foydalanish, foydalanishdan chiqib ketishi, degradatsiya jarayoni) erta aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish mumkin;

Resurslarni optimallashtirish: Tizim qishloq xo'jaligi resurslarini (suv, urug', o'g'it, yoqilg'i) optimallashtirish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi;

Qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash: Tizim qaror qabul qiluvchilarga qishloq xo'jaligi yerlardan foydalanish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Toshkent viloyati O'rta chirchiq tumani Qorasuv MFY massivi hududida 22 gektar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonida turli usullarda amalga oshirilgan monitoring ishlarini iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlari quyidagicha:

1-USUL: Dronlardan foydalanish orqali – sarflangan vaqt 1 kun, ishchi kuchi 2 nafar uchuvchi operator jalb etiladi, ma'lumotlarni qayta ishlashga 2 kun sarflanishi aniqlandi. Shundan oylik ish haqqi 4 400 000 so'mni tashkil etdi, olinadigan ma'lumotning aniqlik darajasi 90-95% ekanligi qayd etildi. Ijobyi tomoni shundaki, inson omili ancha kamayadi va ma'lumotlarni qayta ishlashga atigi 3 kun vaqt talab etiladi. Salbiy tomoni esa, dron uchishiga ob-havo sharoitining ta'siri va dron batareyasining quvvati cheklanganligi sababli katta maydonlarni qamrab olish qiyinligi kuzatildi.

2-USUL: Sun'iy yo'ldosh orqali zondlash usuli – sarflangan vaqt atigi

